

2023 - YIL I - CHORAGI BO‘YICHA MAHALLIYLASHTIRISH DASTURI IJROSI

“Navoiy KMK” AJ tarkibiy bo‘linmalarida 2023-yil mobaynida mahalliylashtirilgan va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish hamda mavjud quvvatlarni kengaytirish maqsadida jami **173** ta loyiha bo‘yicha **620,8** mlrd.so‘mlik, shu jumladan **125** ta yangi va kengaytirilgan loyihalar bo‘yicha **453,2** mlrd.so‘mlik mahalliylashtiriladigan mahsulot ishlab chiqarish ko‘zda tutilgan.

2023 yilda mahalliylashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha tasdiqlangan jadvalga muvofiq, joriy yilning yanvar-mart oylarida **126** ta (jadval bo‘yicha 123 ta) loyiha bo‘yicha **155,4** mlrd.so‘mlik yoki davr prognoziga nisbatan **100,7%**ga mahsulotlar ishlab chiqarilib, 2022 yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati **116,5%**ni tashkil etdi. Shu jumladan, hisobot davrida **92** ta yangi va kengaytirilgan loyihalar bo‘yicha EKG ekskavatorlari uchun ehtiyyot qismlar, markazdan qochma yanchish mashinasi korpusi, gidravlik ekskavatorlari uchun ehtiyyot qismlar, yuklash va etkazib berish mashinasi uchun ehtiyyot qismlar va metallga ishlov beruvchi dastgohlar kabi umumiyligi qiymati **114,2** mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.